



## SHAXSDA VIKTIMLIKNI Keltirib Chiqaruvchi Omillarning Kriminologik Tavsifi.

Dushaboyev Diyorbek Toir o`g`li

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar  
profilaktikasi faoliyati ixtisosligi bo`yicha tahsil olayotgan 3-  
o`quv kursi 319-guruh kursanti

G`aniyev Farrux Taxirjanovich

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar  
profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o`qituvchisi Toshkent,

100197, O`zbekiston, e-mail: fargan77@bk.ru

orcid.org/0009-0005-2423-050X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14605419>

### ARTICLE INFO

Received: 2<sup>nd</sup> January 2025

Accepted: 4<sup>th</sup> January 2025

Published: 6<sup>th</sup> January 2025

#### KEYWORDS

*Viktimlik, Viktimologiya*

*Huquqbuzarliklar profilaktikasi  
Jabrlanuvchi, Huquqbuzarlik va  
Nazariyalar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolani yozishdan asosiy maqsad  
shaxsda viktimlikni keltirib chiqaruvchi  
omillarning kriminologik tavsifi borasida  
zamonaviy qarashlar shaxsning huquqbuzarlikning  
jabrlanuvchiga aylanishini oldini olishga  
qaratilgan yangiliklar yoritib o`tilgan.*

#### Kirish:

Bugungi kunda Respublikamiz hududida huquqbuzarliklarning sonini oshib borishi shu jumladan shaxslarning jabrlanuvchiga aylanishlar soni ortib bormoqda yani jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar soni oshib bormoqda .Shuning uchun ham bugungi kunda viktemologiya ya`ni shaxsni jabrlanish omillarni oldini olish borasida davlatimiz keng ko`lamli islohatlarni amalga oshirib kelmoqda .SHundan ko`rinib turibdiki huquqbuzarlik sodir etilish natijasida shaxsga moddiy, jismoniy ,ma`naviy zaralar kelib chiqib mulkiy shaxsiy va boshqa turdagi konstitutsiyon huquqlari buziladi.Jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy zarar yetishi mumkin.SHaxslarda jinoyat yoki mamuriy huquqbuzarlik natijasida viktimlik vujudga keladi. Shaxsda viktimlikni keltirib chiqaruvchi omillar viktimologiya fani orqali o`rganmishimiz mumkin. viktimologiya – jinoyat sodir etilishiga olib keluvchi sabablarni o`rganish bilan bir qatorda, jinoyat qurboni bo`lish ehtimolini oshiruvchi omillarni ham tahlil qiladi. Shaxsda viktimlikni keltirib chiqaruvchi omillar murakkab va ko`p qirrali bo`lib, ular biologik, psixologik, ijtimoiy va atrof-muhit omillarining o`zaro ta`sirini aks ettiradi. Ushbu maqolada shaxsning viktimlikka moyilligini belgilaydigan asosiy omillar kriminologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Eng avvalo biz huquqbuzarlik , viktemologiya tushunchalarni nimaligini bilishimiz zarur va bunda bizga O`zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati to`g`risida"gi qonundan foydalanamiz . ushbu qonuning 3 moddasida Huquqbuzarlik deb sodir etilganligi uchun ma`muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g`ayrihuquqiy qilmish nazarda tutiladi.

Viktemologiya termini esa ingliz tilidan jabrlanuvchi haqida talimot degan ma`noni bildiradi va" Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati to`g`risida"gi qonuning 43-moddasida Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi tushunchasiga quydagicha ta`rif berilgan: Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga

qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyati huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasidir.

Jamiyatimizda turli xildagi insonlar bor va ularni hammasi ham viktimlik qurboni bo'lavermaydi va eng asosan viktimlik qurbonlari huquqshunoslik nazariyalarida o'zini ko'p maqtab yuruvshi shaxslar ya'ni uzuk sirg'a va shunga o'xshash buyumlarni ko'z-ko'z qilishi natijasida ular viktimlik qurboniga aylanishadilar. Ikkinchi toifadagi shaxslar bular bolalar, yoshi katta shaxslar, aqli naroso shaxslar hisoblanib ular uzini nima qilayotgani to'liq chunib yetmasligi yoki ularning o'zligidan foydalanib qolishi natijasida vujudga keladi. Uchinchi toifadagi shaxslar sifatida asosan ayolarni, nozik shaxslarni keltirib o'tsak ham bo'ladi.

Viktimologiya nazariyalariga muvofiq shaxsning viktimligini turli xildagi omillari mavjud bo'lib ulardan quyidagich ifoda etamiz.

#### 1. Biologik Omillar:

Ba'zi tadqiqotlar genetik omillar va fiziologik xususiyatlarning shaxsning viktimlikka moyilligida rol o'ynashini ko'rsatadi. Masalan, jismoniy zaiflik, kasalliklar, nogironlik kabi omillar hujumga uchrash ehtimolini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, bu omillar mustaqil ravishda viktimlikni belgilashmaydi, balki boshqa omillar bilan birgalikda ta'sir ko'rsatadi.

#### 2. Psixologik Omillar:

Shaxsning psixologik xususiyatlari ham viktimlikka moyilligini belgilaydi. Bular orasida:

Oziga ishonchning pastligi: O'ziga ishonchi past, qo'rqqoq shaxslar hujumchilar uchun oson o'lja bo'lishlari mumkin.

Depressiya va stress: Depressiv holatda bo'lgan yoki yuqori stress darajasiga ega bo'lgan shaxslar atrofdagi xavflarni to'g'ri baholash qobiliyatini yo'qotishlari va o'zlarini himoya qilishga qodir bo'lmasliklari mumkin.

Impulsivlik va tajovuzkorlik: Impulsiv harakatlar qiluvchi yoki tajovuzkorlikka moyil bo'lgan shaxslar noto'g'ri baholar berishi va o'zlari bilmagan holda xavf-xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Alkogolizm va giyohvandlik: Mast holatda bo'lgan shaxslar o'zlarini himoya qilish qobiliyatini yo'qotishadi va hujumga uchrash ehtimolini oshiradilar.

Qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar: Xavfni baholash va tegishli qarorlar qabul qilishdagi qiyinchiliklar ham viktimlikka moyillikni oshiradi.

#### 3. Ijtimoiy Omillar:

Ijtimoiy muhit va shaxsning ijtimoiy holati ham viktimlikka ta'sir ko'rsatadi. Bular:

Kam ta'minlanganlik va qashshoqlik: Kam ta'minlangan oilalarda yashovchi shaxslar hujumga uchrash ehtimoli yuqori bo'ladi.

Ijtimoiy izolyasiya: Ijtimoiy aloqalari zaif bo'lgan shaxslar yordam so'rashga qiyinchilik tortadilar va hujumga uchrashda himoya olish imkoniyati kam bo'ladi.

Jinsi va yoshi: Statistika ko'ra, ayrim jinoyat turlari bo'yicha ayollar va qariyalar erkaklar va yoshlarga nisbatan ko'proq hujumga uchraydilar.

Ta'lim darajasi: Ta'lim darajasi past bo'lgan shaxslar hujumga uchrash ehtimoli yuqori bo'ladi.

Migratsiya va etnik kelib chiqishi: Ba'zan migrantlar yoki etnik ozchilik vakillari diskriminatsiya tufayli viktimlikka moyil bo'lishlari mumkin.

#### 4. Atrof-muhit Omillari:

Shaxs yashagan muhit ham viktimlikka ta'sir ko'rsatadi. Xavfsizligi past, jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda yashovchi shaxslar hujumga uchrash ehtimoli yuqori bo'ladi. Yomon yoritilgan ko'chalar, xavfsizlik kam ta'minlangan binolar kabi omillar ham viktimlikka hissa qo'shishi mumkin.

#### Xulosa:

Shaxsning viktimlikka moyilligini belgilaydigan omillar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularning o'zaro ta'siri va o'ziga xos kombinatsiyasi har bir holatda o'zgarib turadi. Viktimologiya bu omillarni o'rganish orqali jinoyatlarni oldini olish va qurbonlarga yordam berish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bundan tashqari, shaxsning viktimlikka

moyilligini aniqlash uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu biologik, psixologik, ijtimoiy va atrof-muhit omillarini hisobga olishni talab qiladi.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. G'aniev F. T. Turkiya respublikasi: tabiyati, madaniyati va an'analari //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 101-116.
2. G'aniev F. T. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy preventiv mexanizmi //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 84-90.
3. Ganiyev F., Ganiyeva G. O'g'irlik haqida tushuncha, o'g'irlikning psixologik genezisi va mehanizmlari //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 43-47.
4. Ganiyev F., O'zoqboyev S. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ishlarini yuritish //Евразийский журнал технологий и инноватсий. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 131-134.
5. Ganiyev F., O'zoqboyev S. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ishlarini yuritish //Евразийский журнал технологий и инноватсий. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 131-134.
6. Ганиев Ф. Ўғирлик жиноятларининг профилактикаси тушунчаси ва турларига оид айрим мулоҳазалар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 37-42.
7. Ганиев Ф. Т. Ўғирлик жиноятларининг жиноят-хуқуқий жиҳатлари ва олдини олишга доир фикр-мулоҳазалар //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 301-313.
8. Ганиев Ф. Профилактика инспекторлари томонидан ўғирликларнинг олдини олиш фаолиятини ташкил этиш йўналишлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 159-162.
9. Ганиев Ф. “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилига асосланган тизимни жорий этишда фуқоролар йиғинларини фаолиятини тизимли йўлга қўйиш //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 96-98.
10. Ганиев Ф. Ахборот хавфсизлиги ҳамда муҳофазаси таъминланганига қарамасдан содир этиладиган жиноятлар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 129-138.
11. Qushboqov S. X., Usipbekov N. J. Yurtimizda mahkumlarni ozodlikka tayyorlashda amalga oshirilgan islohotlar va ulardan kutilayotgan natijalar //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 179-182.
12. Qushboqov, S., & Tilabov, S. (2023). Kiber jinoyatlardan saqlanishda umumiy profilaktikani o'rni. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(18), 67-69.
13. Қушбоқов, Ш. (2023). Юртимизда тадбиркорликни жазони ижро этиш тизимидаги истиқболи. *Models and methods in modern science*, 2(5), 114-117.
14. Охунов, З., & Қушбоқов Ш, Т. Т. С. Э. (2022). Хуқуқбuzарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(11), 34-39.
15. Qushboqov S., Isroilov D. Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida adliya organlari bilan xamkorligining tashkiliy asoslari //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 9. – С. 16-24.
16. Qushboqov S., Isroilov D. Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida adliya organlari bilan xamkorligi tushunchasi //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 23. – С. 96-103.
17. Qodirjonovich J. Z., O'G'Li Q. S. X. Bir guruh shaxslar tomonidan axborot texnologiyalardan foydalanib sodir etilgan firibgarlik va o'g'irlik jinoyatlarining sodir etish usullari va ularni tergov qilishga oid ayrim mulohazalar //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – С. 137-144.

18. Киличев Х.М. Вояга етмаган болаларнинг исмга бўлган ҳуқуқларини ҳимоя қилиш масалалари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. Maxsus son. – С. 63-67.
19. Маматович Қ.Х. Фуқаролар йиғинлари уни қайта ташкил этишга оид мулоҳазалар //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 764-769.
20. Миршарапов А.Г. Мини-футбол как вид спорта и средства физического воспитания //Conferencea. – 2024. – С. 18-21.
21. Миршарапов А.Г. Jismoniy tayyorgarlik mashg 'ulotlarida chigalyozdi mashqlarining zarurati //Conferencea. – 2024. – С. 159-162.
22. Chorshanbiev В. В. Қуроллиқчлар қўшинларида сув таъминотининг аҳамияти //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 11. – С. 163-167.
23. Ахмедова С.Т., Охунов З.М. Особенности применения административных взысканий за управление автотранспортом в состоянии опьянения //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2024. – Т. 2. – №. Special Issue 6. – С. 48-54.

